



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLIJ VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

ЗАМОНАВИЙ КИМЁНИНГ ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ

мавзусидаги Республика миқёсидаги
хорижий олимлар иштирокидаги онлайн
илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

2020 йил 4-5 декабрь

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА
ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТИ

“ЗАМОНАВИЙ КИМЁНИНГ ДОЛЗАРЪ МУАММОЛАРИ”

мавзусидаги

**Республика миқёсидаги хорижий олимлар иштирокидаги онлайн
илмий-амалий анжумани**

ТЎПЛАМИ

Бухоро, 2020 йил 4-5 декабрь

Бухоро- 2020

МУНДАРИЖА

<i>Тезис номи, муаллифларнинг исми шарифи</i>	<i>бет</i>
Ялпи мажлис йиғилиши	
О.Х. Хамидов – Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор. Кириш сўзи.	3
Применение рса в координационной химии. д.х.н., профессор, Б.Б. Умаров	5
Тўқимачилик ва енгил саноат корхоналари учун сувда эрувчан полимер композициялар ўрни ва истиқболлари. т.ф.д., профессор, М.Р. Амонов	7
Электронная структура и электрооптические свойства ион-радикалов, образующихся при восстановлении солей п, п` диалкилзамещенных 4,4`-дипиридилия М.И. Закиров, Н.Н. Ефимов, В.В. Минин	12
Синтез биологически активных модификаций хитозана <i>vombuymori</i> Вохидова Н.Р., Рашидова С.Ш.	14
The ligand-binding hot spots of cytoglobin: effect of mutation in combination with disulfide bridge. Jamoliddin Razzokov, Sunnatullo Fazliev, Avez Sharipov and Shavkat Mamatkulov	15
Электрод симларни қайта ишлаш жараёнида маҳаллий хомашё асосида олинган сурков композициясидан фойдаланиш. З.А.Хамракулов, Ғ.А. Долиев, С.Б. Мамажанов, О.Ғ.Абдуллаев	17
<i>Oxytropis rosea</i> o'simligi er ustki qismi flavonoidlari. Sh.A. Sulaymanov, Sh.V. Abdullayev, G'.U. Siddiqov	20
Нефт конлари кудуқлари сувларидан йод ва бромни ажратиб олиш. Вапоев Х.М., Бегманов С.Н., Абдуллаев И.Ф.	22
Пахта толали матоларнинг ёнғинбардошлик хоссаларини яхшилаш Нуркулов Э.Н., Бекназаров Х.С.	23
1-ШЎҒБА	
К ВОПРОСУ ПОЛУЧЕНИЯ НОВОГО ВИДА ЖИДКОГО КОМПЛЕКСНОГО УДОБРЕНИЯ. Исабаев Д.З., Жуманова М.О., Кучаров Б.Х., Исабаев З., Закиров Б.С.	24
MIS ISHLAB CHIQARISHNING CHIQINDISIZ TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH MUAMMOLARI. Hojiyev Sh.T., Berdiyarov B.T., Mirsoatov S.U.	25

G.A.Xudoynazarova, S.Q.Berdiyev.	
MASOFAVIY TA'LIM JARAYONINI AHAMIYATI VA UNI TASHKILLASHTIRISH. M.K. Ochilova, I.M.Davronova. Z.K. Nozimova	199
TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK PEDAGOGNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. M.K. Ochilova, M.K. Odilova	201
KIMYO FANLARINI O'QITISHDA TALABALARGA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA BERISH. M.K. Ochilova	203
KIMYO FANI VA UNI O'QITISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI. Mamadaliyeva N.I.	205
ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТЛАРИДА КИМЁ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Л.М. Усмонова	206
КИМЁ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ ФАНИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ- ДА КИМЁГАР ОЛИМЛАРНИНГ ЎРНИ. М.С. Хатамова, Л.М. Усмонова	207
АКТИВИЗАЦИЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ БИООРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ В ДИСТАНЦИОН- НОМ ФОРМАТЕ. Ш.В. Абдуллаев., В.А. Борисова., Н.Н. Убайдуллаева	208
КИМЁ ФАНИНИ ЗАМОН ТАЛАБЛАРИ ДАРАЖАСИДА ЎҚИТИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. Р.Н. Холназаров	210
UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA KIMYO FANIDAN LABORATO-RIYA ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. T.S. Hasanov, B.D. Xolmurodov, D.A. Karimova	213
KIMYO FANINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH. U.M. Norqulov, E.A. Ruziyev	215
MUOMMALI TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA ELEKTROLITIK DISSOSATSIYALANISH NAZARIYASINI O'QITISH METODIKASI Sh.R.Sharipov, G'.N. Sharifov, F.Turdiqulova, B.Raxmonov	217
KIMYO FANNI O'QITUVCHISINING KREAKTIVLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH METODLARI. Sh.R.Sharipov. G'.N. Sharifov, F.Turdiqulova, B.Raxmonov	219
KOMPLEKS BIRIKMALAR MAVZUSINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. M.S. Xatamova, M.I. Norqulov	221
KIMYO DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIM SIFATINI MONITORING QILISHDA PISA DASTURINING AHAMIYATI. G.A.Xudoynazarova. Sh.A.Xudoynazarova, B.N. Qazogov	223
КИМЁ ДАРСЛАРИДА ЧИЗИҚЛИ ТЕНГЛАМАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. Рўзиева К.Э.	225
KIMYO FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI- NING KIRIB KELISHI VA BUGUNGI HOLATI. A.Q.Nuritdinov, O.G.Abdullayev.	227

Moodle — Web muhitida o'qitish va online rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Ochiq kodli **Moodle** dasturiy majmuasi o'quv jarayonini boshqaruvchi **Web** interfeysli muhitga yo'naltirilgan maxsus tizimi bo'lib, asosan global tarmoqda foydalanishga mo'ljallangan. Tizimni yaratishda PHP, MySQL, AJAX, JavaScript, HTML, CSS, XML jQuery kabi qator ochiq kodli dasturiy vositalardan foydalanilgan. Tizimda mavjud o'qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va ancha ko'p bo'lgan boshqa modullari mavjud. Moodle tizimi yordamida masofadan turib ta'lim berish jarayoni juda samarali bo'lib, bunda talaba o'zi o'rganayotgan fanning boshlang'ich qismidan boshlab har bir elementini, topshiriqlarini berilgan mavzulardan o'qib mustaqil o'rganadi. Har bir ma'ruza turli ko'rinishdagi topshiriq savollari, amaliy mashg'ulotlar va kurs elementlari bilan to'ldirib borilgan. Mavzularga doir berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda bajaradi va fan bo'yicha olgan bilim, ko'nikmalarini orttirib boradi. Agar biror topshiriqni bajara olmasa u holda ma'ruza qismini qayta takrorlash imkoniyati mavjud.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, masofaviy ta'lim hozirgi zamon talab darajasiga muvofiq keladigan ta'limdir. Masofaviy ta'lim orqali har qanday sharoitda ham o'qituvchi bilan birgalikda talaba ham birgalikda izlanadi, o'qiydi.

TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK PEDAGOGNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

M.K. Ochilova, M.K. Odilova

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Jondor tumanidagi 33-maktab o'qituvchisi

Jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta'sirini tahlil etganda bo'lajak o'qituvchilarda kreativ faoliyatga ega bo'lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini aniqladik:

-ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta'lim tizimi, metodologiyasi va o'quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini egallashdan iborat. Bu esa o'z-o'zidan bo'lajak pedagoglarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

-ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish o'qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya'ni ta'limga innovasiyalar kiritishni taqozo qiladi. Ta'lim jarayoniga innovasiyalar kirishining muhim shartlaridan biri esa, o'qituvchining innovasion tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflanadi.

-pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni amaliyotga tadbiq etishga nisbatan bo'lajak o'qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi.

Ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarda kreativ qobiliyatlari rivojlantirishning zarurligi qanchalik ahamiyatga ega. Shu o'rinda pedagog ta'lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o'zgarishlar kechishi lozim?

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create"dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamiida aniqlik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli fikr-mulohazalarni birlashtirishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, kimyo fanidan barcha nazariy ma'lumotlarga ega bo'lib, yodlagan bo'lsangiz ham masala va mashqlarni yecha olmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi "Oksidlarning olinishi va xossalari" mavzusini mustahkamlashda o'quvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun savol beradi. Xo'sh o'quvchilar oksidlar deganda nimani tushundingiz va siz uni qaysi pedagogik texnologiyalar asosida yoritib berasiz?. O'quvchilar "baliq sekleti", "Venn diagrammasi", "BBB" metodi, "Klaster usuli", "Zinama-zina" metodlaridan foydalanib oksidlarning olinishi va xossalarini yoritib beradilar. O'quvchilarga dars davomida pedagogik texnologiyalar, innovatsion

texnologiyalar nima ekanligi haqidagi tushunchalarni o'qituvchi tushuntirgan bo'lishi kerak.

Albert Eynshteyn "Tasavvur — bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Interfaol o'qitish jarayoniga muvofiq keladigan texnologiyalarni qo'llash orqali ham talabalarni kreativ faollikka undash, o'qitish jarayoniga muvofiq keladigan texnologiyalarni qo'llash orqali ham talabalarni kreativ faollikka undash, o'qitish jarayonida tashkiliy, mazmun bilan bog'liq, jarayonli, yo'naltiruvchi holatlarini ajratish mumkin. Bunday holatlarning har bir muayyan g'oyalarga muvofiq keladi. O'quv jarayonining dastlabki jihatini mazmunga asoslangan umumlasmalar, o'quv materiallarini muvofiqlashtirish, o'quv fanlarini integrasiyalash, didaktik birliklarni mustahkamlash kabilar tashkil etadi. Interfaol o'qitish metodlarning yana bir o'ziga xos xususiyatlarining tavsifi talabalarning o'zaro munosabatlarida xayrixoxlik, birdamlik, hissiy-ma'naviy umumiylikni vujudga keltirish bilan tavsiflanadi. O'qituvchi tomonidan umumiy bitta savol talabalarga havola etadi. Talabalar birgalikda, jamoa bo'lib fikr-mulohazalarini almashadi va umumlashtiradi. Bu metod orqali talabalar o'rtasida bir-biriga bo'lgan ishonch, bir-birini eshita olishlik, hurmat izzat kabi yaxshi fazilatlar yanada yaxshilanadi. Metodning yana bir qancha ijobiy tomonlarini izohlab o'tganda: bunda interfaol metodlarni qo'llash natijasida ta'lim oluvchilar idrok etish jarayonining teng huquqli ishtirokchilari sifatida namoyon bo'lib, ularning tajribasi o'quv-biluv faoliyatining manbai sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qituvchilar o'quvchilarga tayyor bilimlarini taqdim etmaydilar, balki ularni mustaqil izlanishga undaydilar. An'anaviy o'qitishdan farqli tarzda interfaol o'qitish jarayonida talabalar bilan o'qituvchilar o'zaro birgalikdagi harakatlari o'zgaradi.

KIMYO FANLARINI O'QITISHDA TALABALARGA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA BERISH

M.K. Ochilova

Buxoro davlat universiteti

Ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida ekologik ma'naviyatni uzluksiz ravishda shakllantirish hozirgi davrdagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining barcha asarlarida tabiatdan foydalanish va ekologik xavfsizlik masalalari Respublikamizdagi eng dolzarb